
Tumanimizdagi mahallalarda ichimlik suv tarmog'i tortish ishlari davom etmoqda

Rishton tumanida qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, ichki yo'llar, ichimlik suv, elektr energiyasi va gaz ta'minotini, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa infratuzilma ob'ektlarini yaxshilash, shu asosda aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2022 yil 25 oktyabrdagi qabil qilingan "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida hududlarda salmoqli ishlar boshlab yuborildi.

Tumandagi "Uyrat", "Sohibkor" va "Yoshlik" mahallalarida ham ichimlik suv ta'minoti bilan bog'liq mavjud muammolarni bartaraf etish va bu orqali aholiga qulaylik yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.

Tumandagi barcha mahallalarda hududlar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida obodonlashtirish va qurilish-ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

2023-02-03 08:59:22